

AXBOROT TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARНИ KASBIY SIFATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

*Raxmonov Omadjon Mamasidiq o‘g‘li
Andijon davlat universiteti tayanch doktaranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliv ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha takomillashtirilgan malaka talablari, fan dasturlarini ishlab chiqishda talabalarda kasbiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirilganligi; ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va o’tkazish jarayonini samarali loyihalash mexanizmlarining takomillashtirilganligi, oliv ta’lim muassasalarini bo‘lajak o‘qituvchilarining axloqiy sifatlarini rivojlantirishning diagnostik tizimlari hamda talabalarda kasbiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirishdagi imkoniyatlari, mazkur imkoniyatlarni ta’minalash vositalari, yo’llari, usullari, takomillashtirish mexanizmi, mazkur jarayonni takomillashtirishga qo‘yilgan talablar va bu talablarni amaliyatga tatbiq etish imkoniyatlari haqidagi nazariy yondashuvlarga ega bo‘lingani, bo‘lajak o‘qituvchilarini axloqiy tarbiya berish ko‘lamini kengaytirish va sifatini ta’minalash mexanizmlarining amal qilish yo’llari ilmiy jihatdan yoritilganligi bilan izohlanadi

Kalit so‘zlar: yangilik, ilm-fan, ilmiy-pedagogik faoliyat, tadqiqot, ilmiy tadqiqotchilik, kashfiyot, o‘z-o‘zini anglash, ilmiy konferensiyalar, intellektual-rivojlanuvchi.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Рахманов Омаджон Мамасидик угли
Базовый докторант Андижанского государственного университета*

Аннотация: В данной статье улучшены квалификационные требования по социально-гуманитарным, общепрофессиональным и специальным предметам, преподаваемым в высших учебных заведениях, совершенствованию профессиональных качеств студентов при освоении программ естественных наук с помощью информационных технологий; Совершенствование механизмов эффективной организации процесса организации и проведения духовно-просветительских мероприятий, систем диагностики развития нравственных качеств будущих педагогов высших учебных заведений, студенты имеют теории и представления о возможностях совершенствования своих профессиональных качеств посредством информационных технологий, средствах, методах, способах обеспечения этих возможностей, механизме совершенствования, требованиях к совершенствованию этого процесса и возможностях реализации этих требований. Будущее объясняется тем, что методы реализации механизмов расширения сферы нравственного воспитания и обеспечения качества педагогических кадров являются научно изученными.

Ключевые слова: инновации, наука, научно-педагогическая деятельность, исследования, научные исследования, открытия, самосознание, научные конференции, интеллектуально-развивающие



PROFESSIONAL IMPROVEMENT OF STUDENTS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGY

Rakhmonov Omadjon Mamasidik ugli
A base doctoral student of Andijan State University

Annotation: In this article, the improved qualification requirements for socio-humanitarian, general professional and specialized subjects taught in higher education institutions, the improvement of professional qualities of students in the development of science programs with the help of information technologies; The improvement of the mechanisms of effective organization of the process of organizing and conducting spiritual and educational events, diagnostic systems for the development of moral qualities of future teachers of higher educational institutions, and students have theories and ideas about the possibilities of improving their professional qualities through information technologies, the means, methods, methods of providing these possibilities, the mechanism of improvement, the requirements for the improvement of this process and the possibilities of implementing these requirements, the future It is explained by the fact that the implementation methods of the mechanisms for expanding the scope of moral education and ensuring the quality of teachers have been scientifically studied.

Key words: innovations, science, scientific and pedagogical activity, research, scientific research, discoveries, self-awareness, scientific conferences, intellectual development.

Kirish. Dunyo miqyosida ta’lim jarayonini axborotlashtirishning kuchayib borishi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, har bir fuqaroning ijtimoiy faolligini oshirish bilan birga ta’lim tizimining rivojiga xam o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Yuneskoning «Axborot hamma uchun» dasturi, Rossiya federatsiyasining 2017-2030 yillarga mo’ljallangan “Jamiyatni axborotlashtirishni rivojlantirish strategiyasi” xam ta’lim tizimida axborotlashgan muhitni takomillashtirishga qaratilgan. Jumladan, innovatsion va axborot texnologiyalar iqtisodiyot, fan, ishlab chiqarish va ta’limning dolzarb pedagogik muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga qodir bo’lgan kadrlarning ijtimoiy, xuquqiy, texnik bilimlarini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda muhim xisoblanadi.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning kasbiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini rivojlantirish, ma’naviy sifatlar ko’rsatkichlari hamda lokal-modulli texnologiyalarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyalaash jaaryoniga tayyorlash ilmiy pedagogik izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash pedagogik jarayonlarni amalga oshirishning strategik maqsadlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda axborot oqimlarining rivojlanishi har bir mutaxassisning o‘rab turgan dunyonи bilishda, ijodiy faoliyati, kasbi haqida haqidagi bilimlarni egallashda ijobjiy va salbiy fikrlarga ega bo‘lishda, intellektual saloxiyatni oshirishda, talaba hayotining qiziqarli va mazmunli, jo‘shqin bo‘lishda, global muammolarni hal etishda, uning ijtimoiy faolligini iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy yo‘nalishlarning uzviyligini va natijalarini sifatli bo‘lishida, ishlab chiqarish sifatini yaxshilashda, kasb mohiyatini tushunishda, ulardan samarali foydalanishda qobiliyatiga ega bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Chunki, axborotlarni izlash, tahlil etish, to‘plash va texnologiyalarni qo‘llash kabilar faqatgina o‘tmishni, tarixni, bugunni qamrabgina qolmay, balki kelajak bilan ham

shug'ullanuvchi talabalar faoliyatida muhim jarayon hisoblanadi. Ya'ni ushbu jarayonda talabaning bilim natijalari, axloq-odob va huquq qoidalari, qobiliyatları, malakalari, intellektual, estetik va axloqiy darajalari, o'zaro muloqoti, dunyoqarashi, hamkorlik aloqalari kuchayadi. Axborot madaniyati haqida turli adabiyotlarda turli malumotlar berilgan. Ko'pgina mualliflarning takidlashicha, axborotning avfzalligi o'zaro aloqalar bilan bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda axborot madaniyati haqida turli tariflar berilgan. N.B.Zinoyevaning fikricha "Axborot madaniyati – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan materiallarni o'zlashtirish asosida shaxs ichki dunyosining barkamolligidir". A.A.Gregixining axborot madaniyatini shakllantirish axborot faoliyati orqali amalga oshadi deb takidlash bilan birga uni quyidagicha izohlaydi. "Axborot madaniyati – bu aksioligik xarakterdagi axborot faoliyati, yani bir – biriga bo'lgan madaniy qadriyatlardir ". I.G.Xangelidiyevning takidlashicha "Axborot madaniyati – bu inson hayoti va faoliyatida o'zining egallagan, uzatgan, saqlagan va axborotlardan foydalangan umuminsoniy, manaviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan sifatli xarakteristika". YE.L.Semenokning tushunishicha axborot madaniyati – bu shaxs tavsifnomsi. Axborot madaniyatini shakllantirish shuni ko'rsatadiki unda bilimlar asosida insonparvarlik g'oyalari, shaxs munosabatlari rivojlanadi. Jumladan, O.V.Kiyevaning "Texnika oliv o'quv yurtlarida gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish" [2] mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida ushbu muammoning nazariy asoslari, tarixi, axborotlarni qayta ishslash va uzatish, o'qitish jarayonida komp'yuter vositalaridan foydalanish, elektron metodik qo'llanmalar yaratish masalalari metodik jihatdan ishlab chiqilgan. S.N.Konyushenkoning "Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida o'qituvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'qituvchining axborot madaniyati pedagogik muammo sifatida, uning shart sharoitlari, loyihalash texnologiyasi kabilalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotmetodologiyasi(ResearchMethodology) Aborottexnologiyalari vositasida talabalarda kasbiy sifatlarni shakllanishi, kasbga, mehnatga, nisbatan bildiriladigan fikrlarning ijobiy va salbiy tomonlari, xatti-harakatlari, munosabatlari, me'yor va qoidalari, qay darajada axborot madaniyatiga ega ekanligi, uning dunyo voqealaridan xabardorligi, bilimi, odamlar bilan bo'lgan ijtimoiy munosabatida namoyon bo'ladi. Albatta, bunda o'qituvchi talabalarda axborot muloqotini tarbiyalashda guruh jamoasi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, nazorat qilish, xatti-harakatlariga alohida ahamiyat berish bilan birga, doimiy talabchan bo'lish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talabalarning muloqot munosabatlari axborotlarni bilish bilan belgilanmaydi. Chunki, axborot haqidagi bilim va tushunchalarining o'zi talabalarning axborot muloqotlarini yaxshi bo'lishining mezoni bo'la olmaydi. Muloqot jarayonida talabalarning axborotlar haqidagi bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatda, kundalik hayotda amal qilishlariga ko'maklashish imkoniyatini beradi. Axborotlar asosida talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish - bu mahorat, fahm-farosat bilan muammolarni hal etishda o'z kasbiga kreativ yondashish, ijodiy, ilmiy tahlil bilan birga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Axborotlar texnolnogiyalari vositasida talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish asosida loyiha, dastur, bilimlar banki, axborotlarga bo'lgan ehtiyojini baholash, ma'lumotlarni to'plash, ularni boshqarish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Talaba muloqot madaniyati funksiyasi talabalar tomonidan ilmiy-texnik tizimlarni o'rGANISH, qo'yilgan muammoning maqbul yechimini kafolatlash imkonini yaratadi.

Ta'lim muxitini axborotlashtirishning muhim talabalaridan biri-bu har bir darsda

o‘tiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo‘lishi, ya’ni unda talaba bilimlari va imkoniyatini hisobga olgan holda, mavzu hajmi va mazmunini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o‘rganilgan mavzu bilan bog‘lash, bo‘lajak kasb egalariga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlar ketma-ketligini aniqlash, ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

-mashg‘ulotlar jarayonini oldindan loyihalash, uni talabalar ishtirokida qayta ishlab chiqish;

-ta’limni axborotlashtirish asosida o‘quv-ijodiy faoliyat mazmunining talaba nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish sifatini yuqori darajada bo‘lishiga erishish;

-mashg‘ulot jarayonida yangi texnik vositalar va talaba imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvinitashkil etish;

-talaba faolligiga tayangan holda mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridaularning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish;

-belgilangan baholar mezonlariga muvofiq test-sinov vazifalarini bajarish va ularning samaradorligiga erishishda o‘qituvchi talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni nazorat qilish, ularning jamoaviy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarini boshqarish uslublaridan foydalanishi o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Ta’lim muhitini axborotlashtirish funksiyasi asosan kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, axborot va dasturiy ta’milot hamda talabalarning hamkorlikda faoliyat yuritish jarayonini aks ettirib, u iste’molchi uchun axborot ishlab chiqarishni o‘z zimmasiga oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu funksiya o‘rganilayotgan ob‘yektga tegishli barcha axborotlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun axborot muhitini yaratishdan iborat.

Axborotlarni egallash faolligi funksiyasi shundaki, o‘qituvchi talaba shaxsini axborotlar asosida shakllantirish uchun ular bilan doimo muloqat va munosabatda bo‘lishi, ijtimoiy foydali axborotlar bilan tanishtirish orqali ularning qobiliyati, o‘qishi, mehnati va ijtimoiy faoliyati, maqsadga erishishi, o‘zini boshqarish, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va bunda kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, axborot malumotlarini rivojlantirish kabilar amalga oshiriladi. Ijtimoiy hayotda talaba o‘zining hayot faoliyati, shart-sharoitlari, turmush tarzi bilan ajralib turadi. Ya’ni, axborotlarni egallahdagagi ongliligi hamda faolligi talaba faoliyatining asosini tashkil etadi. Ahborot egallahdagagi ongliligi va faolligi talabalarning oliy maktabda turli ijtimoiy va texnik fanlar asoslarini egallashi natijasida dunyon, koinotni zabt etishga intiladi.

Ta’limda talabalar faolligi, ijodiy faoliyati, intilishlari, harakatlari,mustaqilligi uslublari, intilishi, hissiyorlari, qiziqishlari axborot madaniyatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.Chunki axborotlarni o‘rganish faolligi har bir talabani madaniyat,ma’rifat,fan va texnikadunyosiga olib kiradiva kasbiy faoliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarda axborotlarni egallash faolligi funksiyasini ta’lim jarayonlari uchun axborotlar to‘plash, ularni ajratish va ularni qayta ishlash, maqsadga erishish, ta’sir ko‘rsatish, qaror qabul qilish, fan, texnika, texnologiya sohasidagi ma’lumotlardan xabardor bo‘lish, ommaviy axborot vositalari orqali voqeа-hodisalar, tajribalar, muammolar haqidagi malumotlarni o‘rganish va ularga o‘z munosabatini bildirish asosida bilish yoki anglashida, boshqarishida fan va texnika taraqqiyotini tushunish, asosida muhandislik mehnat faoliyatiga oid bilimlar rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. O‘quv jarayonida talabalarda axborot madaniyatini

shakllantirish funksiyalarini puxta o‘zlashtirish ularning axborotlarini esda qoldirish, esda saqlash va qayta esga tushurish kabi xotira jarayoni faoliyatiga bog‘liqdir. Axborotlarni mustahkam esda saqlab qolish ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o‘quv materiallarini sistemali va ongli o‘zlashtirishlariga bog‘liq. Biroq puxta o‘zlashtirishning muvaffaqiyati esa ko‘p jihatdan axborotlarni takrorlash va mashq qildirishga bog‘liqdir. Ushbu jarayonda axborotlarni mustaqil va alohida - alohida o‘rganish turi xilma - xildir. Ushbu jarayonda axborotlarni o‘zlashtirish, takrorlash, ularni xotirada saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Axborotlarni takrorlashning ahamiyati shundaki, ushbu jarayonida faqat oldindan o‘zlashtirilgan axborotlarni esga tushirilmay, balki ularni o‘quv materiallari bilan bog‘lash talabalarni kasb haqidagi bilimlarni har tomonlama egallah, tushunish, mustaqil hayotga tayyorlash orqali ma’lumotli kishilar bo‘lib yetishadilar. O‘zlashtirilgan axborotlar, o‘quv materialni egallahda talaba uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda o‘qituvchi talabalarning bilim. ko‘nikma va malakalarini o‘z vaqtida tekshiradi, hisobga oladi va baholab beradi. Ushbu jarayonda talabalar tomonidan o‘zlashtirilayotgan axborotlarni nazorat qilish, bilim sifatini aniqlash, o‘quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o‘zlashtirib olish va baholash jarayonida talabalar izchil ishlash, irodaviy sifatlarni o‘stiradi. Bu masalalar esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Talabalar bilimini tekshirish orqali ularning sifatini aniqlanadi. O‘qituvchi talaba bilimlarini tekshirish orqali uning axborotlarni idrok etib, qanday tushunganligini, fikr yuritayotganligini, o‘quv materiallarini qay darajada umumlashtirib olganligini aniqlaydi. Shu bilan birga talabalarning axborotlarni o‘zlashtirishini o‘rganish va tekshirish ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatini, tirishqoqligini, o‘ziga talabchanligini, bilimga, ega bo‘lgan qiziqishini bilishga imkon beradi. Shuningdek, talabalarning xotirasi, bilish qobiliyatining qay darajada o‘sganligi, ulariing mustaqil ishlashga ko‘nikma va malakalarni qay darajada egallaganliklari aniqlanadi. Tekshirish vaqtida o‘quv materiallari esga olinadi va talabalarni sezish, idrok qilish, fikrlash qobiliyatları ham o‘sib boradi. Bu jarayonda talabalar keng fikr yuritishga, o‘quv materiallarini asoslashga, mulohaza yuritish, isbotlashga o‘rganadilar.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.
2. Abu Nasr Forobi. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi Xayrullayev.M.M. Toshkent, Fan nashriyoti, 1975
3. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash san’ati (gnoseologik izlanishlar): Maqolalar. Esselar. Bitiklar. –T.: «Noshir», 2008. - 268 6.
4. Abdullayeva M.N., Tulenova K.J., G‘affarova G.G., Niyazimbetov M.K. Milliy g‘oya va fanning metodologik muammolari. Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 19 b.
5. Xurshid Yo‘ldoshev. Falsafa fanmi?. –Toshkent: “Tafakkur” № 1 (62), 2010 yil. –B.44-49.
6. Гегель. Энциклопедия философских наук. (комплект из 3 книг). Серия: Философское наследие. М. изд. Мысль 1975-1977г. 456с.;696с.;472с.
7. Ovxunov, I. A. (2023). Virtual borliq va unga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishda axborotning roli. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 2(2), 11-15.